

## O'QUVCHILARNI MUMTOZ MUSIQA ASARLARI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

*Mirzayeva Surayyo Xudaykulovna*  
*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani*  
*38-maktab Musiqa fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirishda milliy musiqa san'atimiz yirik namunalarining o'rni, maqom ijodining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan. Maqom tarixi o'rganilishi tadbiiq etilgan. O'rta asr musiqashunoslarining ilmiy-musiqiy merosi va zamonaviy o'zbek kompozitorlarining ijodida milliy musiqa san'atimiz namunalarining qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona — Toshkent maqom yo'llari, ustoz -shogird an'analari.

**Abstract:** This article discusses the role of major examples of our national music in the development of musical literacy of students, the makam. The history and study of makam The scientific and musical heritage of medieval musicologists and the use of examples of our national music in the works of modern Uzbek composers are discussed.

**Keywords:** Bukhara makam's, Khorezm makam's, Fergana - Tashkent makam ways, fairy tales, proverbs, songs, riddles, ideology, psychology, teacher-student traditions.

**Maqom** (arab tilidan olingan bo'lib — joy makon o'rin ma'nolarini anglatadi) — musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg'uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma'nosida ishlatilgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida Maqomning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog'liq boshqa ma'nolarni ham ang'lata boshladi: lad tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub va boshqa Maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy va Forobiy (9—10-asr), Ibn Sino va Ibn Zayla (11-asr), Safiuddin al-Urmaviy (13-asr), Mah-mud ash Sheroziy va Abdulqodir Marog'iy (14-asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (15-asr), Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy (16-asr), Darvishali Changiy (17-asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida tadbiiq etilgan. Yaqin va O'rta Sharq mumtoz musiqa nazariyasida 13-asrga qadar Maqomlar soni aniq belgilanmagan. Safiuddin al-Urmaviy Maqom nomlaridagi parda tuzilmalarini ilmiy tasniflab, O'n ikki maqom tizimini ishlab chiqqan. Ushbu tizim birmuncha takomillashtirilgan holda qariyb 17-asrga

qadar qo'llanib kelingan. O'n ikki maqom negizida keyinchalik har xil milliy hamda mintaqaviy Maqom turlari va turkumlari vujudga keldi. Bular o'zbek va tojiklarda Maqomlari deyilsa, turkman va uyg'urlarda muqom, eron xalqlari, ozarbayjon va armanlarda murom yoki dastgoh, turklarda makam, arab xalqlarida maqam shaklida talaffuz qilinadi. Xalqchil, milliymahalliy an'analar ta'siri ostida Maqomlarning musiqiy va ijroviy xususiyatlari yangi hislatlar bilan boyigan holda umumiy soni, nomlanishi, tartibi hamda tuzilishida muayyan mushtaraklik va tafovutlar mavjud.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Shashmaqom haqidagi ma'lumotlarni Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqa mualliflarning asarlaridan topish mumkin. Mazkur davr tarixida Ahmad Donish taniqli shaxs. Eng avvalo, u Buxoro madaniy-ma'ryfiy muhitida bo'yaga yetgan va musiqa san'atiga yaqindan aloqador bo'lgan ziyoli. Dutor, tanbur chalib zavq olish uning odatlaridan bo'lgan. O'zining "Nabo'dirul vaqoye" ("Nodir bo'qeyalar") kitobidagi falsafiy mushohadalaridan birida surat (tashqi ko'ri-nish) va siyrat (ichki mazmun) masalalariga to'xtalib, musiqiydan qiziq o'xshatish keltiradi: "Sozanda o'rtada o'ltirib cholg'usiga tortilgan torga yoki simga noxun uradi. Natijada kishilarning qulog'iga darang-darang, g'ing-g'ing ovozlari eshitilib turadi. haqiqatda esa bu ovozlarni ta'sir etib aytmaydilar. Haqiqiy ta'sirlanish yuzaga kelganda cholg'uchi hamda uning butun harakatlari eshituvchining ko'nglidan ko'tariladi. Tom tuynugidan tushgan quyosh no'rining nayzasi kabi nafis noxun nozikorga yetib to'xtaydi. Uzoq-uzoqlardan kelgan mungli nola quloqqa uriladi. Kishi gohida xayolan cholg'u chaladi. Ammo sozandaning o'zi ko'rinmaydi; uning ustida boshqa bir cholg'uchi paydo bo'ladiki, u esa Zuhro yulduzining ruhi hisoblanadi. Mana shunday ta'sirlar ko'pincha tiniq, nafis ko'ngillardagina paydo bo'ladi. Lekin uni so'z qilib, qalamga keltirib yozib bo'lmaydi.." Sadridin Ayniyning vafotidan keyin chop etilgan maqolasida Shashmaqomning paydo bo'lishi haqida quyidagilar ma'lum etiladi: "XIX asrda tojik klassik musiqasining nazariyasi va amaliyotida Ahmad Maxdumi Donish (1827-1897), Iso Maxdum (1827-1888), Abdulqodir Xo'jai Savdo (1823-1873) va boshqalar katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, shuhrat qozondilar. Savdo "Shashmaqom"ning barcha shu'valarini o'zgacha qilib, ashula va cholg'u kuylarini yaratdi.

Maqomlarning uchinchi yirik yo'nalishi Farg'ona va Toshkent bo'halari bilan bog'liq. Bu joylarda qaror topgan klassik musiqa tizimi umumlashtirilib "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. 20-30- yillarda ustozlar mazkur tizimga nisvatan "Shashmaqom", "Olti yarim maqom"ga o'xshatib, "Chormaqom" (ya'ni to'rt maqom) atamasini ham qo'llaganlar va uning tarkibida "Bayot", "Dugoh Husayniy", "Chorgoh" va "Gulyor-Shahnoz" nomlari bilan yuritiladigan birikmalarni tushunganlar. Farg'ona-Toshkent Chormaqomi, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq, qismlari bir-biriga bobasta qilingan turkum shaklida emas, balki umumiy nom ostida keladigan mustaqil kuy yo'llari tarzida namoyon

bo`ladi. Shunga ko`ra, ular "Dugoh I", "Dugoh II", "Dugoh III" yoki "Bayot I", "Bayot P", "Bayot III" kabi tartib sonlari bilan belgilanadi.

XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Toshkent va Farg`ona maqomlarining har biri alohida maktab sifatida ko`rilib, mustaqil nomlar bilan yuritilgan. Jumladan, "Toshkent maqomlari", "Turkiston maqomlari" va "Farg`ona maqomlari" kabi tushunchalar iste`molda yurgan. So`nggi paytlarda, aniqrog`i I.Rajabo`bning "Maqomlar masalasiga doir" kitobi paydo bo`lishidan boshlab maqomotni yagona tizim shaklida ko`rsatish maqsadida "Shashmaqom" va "Xorazm maqomlari" bilan bir qatorda "Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari" atamasi istiloxda muhimlasha boshladi. O`z mohiyatiga ko`ra Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari Shashmaqom, Xorazm maqomlari yoki boshqa bir tizimning ko`chirmasi emas, balki mushtarak maqomot negizida yerlik sozanda va bastakorlar tomonidan ishlangan shaklidir. Parda va usul tamoyillarining o`xshashligi bilan bir qatorda kuy va ashulalarda Farg`ona-Toshkent shevasiga xoslik yaqqol sezilib turadi. Qolaversa, bu uslubni to`satdan paydo bo`lgan deyish ham to`g`ri kelmaydi. Zero, Farg`ona-Toshkent maqom yo`llarining asoslari puxta ishlanganligi, sozanda va tinglovchilar ongida chuqur o`rnashib qolganligi mazkur an`analarning ildizlari uzoq zamonlardan kelayotganligidan dalolat beradi.

Tarixiy kitoblar, musiqiy risolalar va adabiy tazkiralarda Farg`ona vodiysi hamda Toshkentdan chiqqan yetuk sozandalarning nomlari ko`plab tilga olinadi. Ularning san`ati mahalliy doiradan ancha keng va butun Markaziy Osiyo mintaqasida shuhrat topgan. Umuman olganda, bu joylarda klassik musiqaning rivojlanishi avvaldan vaquvvat an`analarga ega. XVIII asrning oxirlariga kelib, Qo`qon xonligi alohida davlat sifatida tarkib topishi bilan Farg`ona va Toshkent bo`halari uning asosiy o`zagi sifatida yagona madaniy-ma`muriy doirani tashkil qilgan an`analarning uzluksiz tabiiy ravishda dabo`m etgirish fursati paydo bo`ldi. Ularning shirasi va shevasi imkon kedar saqlandi. Bugungi kunda Xorazm maqom turkumlarining tarkibi tanbur chizig`iga ko`rsatilganidan ancha ixcham. Olti yarim maqom tizimining esa ayrim qismlari, ayniqsa, cholg`u yo`llari afsuski iste`moldan qolmoqda. Lekin vaxtimizga ularning o`ziga xos jarangi va ijodiy qiyofasi yo`qotgan emas. Ana shu muhitda she`riyat, musiqa, me`morchilik va boshqa amaliy san`at turlarida o`ziga xos uslub yuzaga kelishi va takomillashubiga zamin hozirlanadi. Mazkur uslubning rivojlanish samaralari musiqa va she`riyat borasida, ayniqsa, sezilarli bo`ldi. Xususan, Muhammad Umarxon (1809-1822 y) vauningo`qli Muhammad Alixon (Madalixon) (1822-1842 y) davrlarida qo`qon shoir va sozandalarning dovrug`i keng tarqala boshladi. Muhammad Umarxon yetuk davlat arbo`bi va zamonasining eng ilg`or vakillaridan bo`lib, uning Amiriy taxallusida yozgan deboni keng e`tibor topgan. Shoirning umr yo`ldoshi Nodira taxallusi bilan ijod etgan Moxdarvegim ham o`zbek she`riyatining yirik namoyandasidir. Amiriy va Nodira - Sharqning eng mumtoz shoirlari qatoridan o`rin oladi. Ularning o`zbek va tojik tillaridagi g`azallari nafaqat

Farg`ona-Toshkent bo`halari, balki Buxoro, Xorazm hofizlari orasida ham keng tarqalgan. Umarxon va Nodiralarning farzandi Madalixon ham ilmu ma`rifatga, nafis san`atlarga ko`ngil qo`yganganligi ma`lum

Ma`lumki Mustaqilligimizdan keyin ma`naviy qadriyatlarimizga e`tibor anchagina kuchaydi. Chunonchi, hozirgi kunda musiqa madaniyati darslarida tuzilishi va kuylanishiga ko`ra unga murakkab bo`lmagan xalq kuy va qo`shiqlari zamonaviy kompozitorlik ijodiy namunalari bilan birga o`rgatila boshlandi. Ayniqsa boshlang`ich sinfdan boshlab asta-sekin xalq musiqasi turlarining nisbatan murakkab tur va janrlari (epik qo`shiqlar, alla, lapar va turli marosim qo`shiqlari) o`rganila boshlandi. 6-7 sinflarda esa maqom yo`llarida yaratilgan asarlarni o`rganish o`z samarasini ko`rsatib kelmoqda. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, yangi avlodni tarbiyalashda va ularning axloqiy barkamol, ma`naviy sog`lom bo`lib yetishishlarida mumtoz ashulalarimizning tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta. Bunda musiqa madaniyati darsi o`qituvchisining mahorati, bilim saviyasining o`tkirliigi muhim o`rin egallaydi. Chunki o`qituvchi avvalambor musiqa asarini o`quvchilarga eshittirishi kerak. Shundan so`ng esa uni yoqimli kuylab berishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Jumladan, darsning musiqa tinglash jarayonidagi badiiy va tarbiyaviy jihatlari tomonidan barcha talablarga mos va musiqa madaniyati darslari dasturida berilgan “Firuz-I” ashulasini tinglash borasida fikr yuritmoqchimiz. O`qituvchi bu mumtoz ashulani eshittirish uchun avvalo uning nomini e`lon qilib yaratilish tarixi, ijrochilari, ijro xususiyatlari tarbiyaviy ahamiyati haqida hikoya qilib beradi. O`qituvchi “Firuz-I” qo`shig`i tarixi haqida gapirar ekan shunday deydi: Muhammad Rahimxon Feruz (1863-1910) yillarda Xiva xonligini 47 yil boshqargan adolatli xon bo`libgina qolmay, o`zbek milliy madaniyatini yuksak pog`onaga ko`targan ma`rifatparvar shaxsdir. U o`z davrida adabiyot va san`atni rivojlantirishda hissa qo`shgan buyuk shoir va xondir. U Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi shoirlarga ergashib g`azallar mashq eta boshlaydi. Uning noziktab g`azallarini ko`rgan saroy shoiri Komil Xorazmiy xonga Feruz taxallusini taklif etadi. Feruz - “baxtli”, “to`leli”, “g`olib” degan ma`nolarni anglatadi. Feruz o`z zamonasida ajabtovur musiqashunos va bastakor edi. U shoir va san`atkor Komil Xorazmiyning tashviqi bilan eng qadimiy “Shashmaqom” kuylarini to`liq o`rgandi va “Navo”, “Segoh”, “Dugoh” maqomlariga bog`lab kuy yaratadi. O`sha davrda Ogahiy g`azali Feruz musiqasiga “Feruz-1” ashulasini yaratilib saroy hofizlari ijrosida mahorat bilan kuylangan.

Hozirgi kunda maqomlar o`z salmog`i va mazmuni bilan ko`pgina musulmon Sharq xalqlari musiqa merosining asosiy kismini tashkil etadi. Ular shaklan va usluban rangbarang ohangdor kuy va ashula yo`llaridan iborat. Xususan, o`zbek mumtoz musiqasida Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg`ona — Toshkent maqom yo`llari, shuningdek, yovvoyi maqom, surnay, dutor maqom yo`llari yuzaga kelgan. Milliy musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etgan maqom nomidagi cholg`u va

aytim musiqa asarlari o‘tmish bastakorlik ijodiyotining mumtoz mahsuli bo‘lib, asrlar davomida og‘zaki an’anada sayqal topib bizgacha yetib kelgan.1987 yildan YUNESKO huzuridagi An’anaviy musiqa bo‘yicha xalqaro uyushma (IFMC) qoshidagi "Maqam" ilmiy guruhi faoliyat ko‘rsatmoqda. XX asr boshlaridan shu kunga qadar o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari maqomlardan unumli foydalanib kelmoqdalar. Maqom negizi va uslubida bastalangan Hoji Abdulaziz, Sodirxon hofiz, Y. Rajabiy, F. Sodiqov, K. Jabborov, S. Kalonov, O. Hotamov, F. Mamadaliyev va boshqalarning kuy va ashulalari, o‘zbek maqomi qonuniyatlari hamda o‘ziga xos ifoda vositalari muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ko‘hna maqom san’ati o‘zining barkamol badiiy-estetik ahami-yatini tiklab, zamonaviy musiqiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘zining beqiyos ijodiy, ijroviy va ilmiy salohiyatini namoyon etmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, musiqa madaniyati o‘qituvchisi maqom yo‘lida yaratilgan ashulalar va xalq og‘zaki ijodi namunalarini musiqa tinglash jarayonida qo‘llasa uning yaratilish tarixi, tarbiyaviy ahamiyati, ijro xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumotlar berib asarni mahorat bilan ijro etib ko‘rsatsa yoki yozuvda eshittirsa o‘quvchilarning bunday qadimiy va serjilo mumtoz ashularimizga bo‘lgan munosabatlari shakllanib, ularni tinglash va kuylashga istagi paydo bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D. Soipova. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi.-Toshkent, fan va texnologiyalar.2009-yil, [1,5-25.b]
2. Qo‘rbanova G.I. Vospitaniye molodyoji vduxu natsionalnoy idey sredstvami muzyki I natsionalnykh sennostey.-M.:Drofa. [2,52.b]
3. Qudratov I. Musiqa ta’limida fanlararo a’loqadorlik. Uslubiy qo‘llanma, SamDU,2015-yil [3,26.b]
4. Alibekova R.I. Metodicheskiye rekomendatsii Russkaya slovestnost Ot slova k slovesnosti 5-y klass. -2-oye izd, stereotip. –M.: Drofa. [4,44.b]
5. I. A. Akbarov, Musiqa lug’ati. Toshkent “G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti” - 1987 y.
6. F. M. Karamatov, O‘zbek xalq musiqa merosi. Toshkent “G’afur G’ulom nomidagi nashriyoti” – 1978 y.